

Bajarilishi bir yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Huquq fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Sodir etilgan jinoyatlarning sabab va sharoitlarini tahlil qilish asosida jinoyatlarning barvaqt oldini olishga qaratilgan milliy “Criminology AI”- sun'iy intellekt texnologiyasini ishlab chiqish 	Tadqiqotning shakli: Amaliy. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - sun'iy intellekt asosida jinoyatlarning tahlil tizimi ishlab chiqiladi; - jinoyatlar va ularning sabab hamda sharoitlarini aniqlash uchun sun'iy intellekt asosida ishlaydigan “smart tahlil platformasi” yaratiladi. Bu tizim jinoyatlarning qay darajada sodir etilganini va ularga olib kelgan omillarni (iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, psixologik va boshqa) tahlil qiladi; - sun'iy intellekt texnologiasining ishlashi uchun jinoyatlar bo'yicha katta ma'lumotlar bazasi tuziladi. Bu bazada jinoyatlar haqidagi ma'lumotlar, ularning holatlari, sodir etilgan vaqtlari, jinoyatchilarning shaxsiy ma'lumotlari va boshqa muhim omillar to'planadi. Bu ma'lumotlar tizimga kiritiladi va algoritmlar orqali tahlil qilinadi; - jinoyatlarning barvaqt oldini olishga yo'naltirilgan sun'iy intellekt algoritmlari ishlab chiqiladi; - “Criminology AI” tizimida jinoyatlarning oldini olish uchun prognoz qilish va oldindan o'rganish asosida turli tahlillar olib borish uchun maxsus algoritmlar ishlab chiqiladi. Bu algoritmlar jinoyatchilikka olib kelishi mumkin bo'lgan omillar (ijtimoiy, iqtisodiy yoki psixologik omillar)ni aniqlashga yordam bergan holda tezkor choralar ko'rish imkonini beradi. - jinoyat sodir qilishi mumkin bo'lgan shaxslarni aniqlash va profilaktika qilish tizimi yaratiladi; - sun'iy intellekt tomonidan jinoyatchilarning qaysi omillarga asosanib jinoyat sodir qilishi mumkinligini oldindan taxmin qilish tizimi yaratiladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Ichki ishlar vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Ichki ishlar vazirligining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.